

USMON NOSIR HAYOTI VA IJODINI O'RGANISHDA FANLARARO INTEGRATSIYADAN FOYDALANISH

Gulshoda Ortiqova

NamDU o'zbek tili yo'nalishi
4-kurs talabasi

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada Usmon Nosir hayot yo'li va adabiy merosini o'rganishda adabiyot darslarida fanlararo integratsiyani yo'lga qo'yish, uning o'ziga xos xususiyatlari hamda boshqa fanlar bilan aloqadorlikka asoslangan metodlar haqida mulohazalar yuritilgan.

KALIT SO'ZLAR: integratsiya, fanlararo aloqa, muammoli ta'lim, "Adabiy xokkey", "Uzum pishdi", "Karra jadvali" metodlari.

Adabiyot atalmish osmonda yulduzlar shu qadar ko'pki, biri-biridan porloq, biri-biridan yorqin. Biroq shular ichida shunday bir yulduz borki, quyosh yanglig' yorug' nur sochadi, boshqalaridan ajralib turadi. Bu yulduz – Usmon Nosirdir! Shoир kam yashagan bo'lsa-da, mazmunli hayot kechirdi, o'zidan asrlarga tatiydigan boy adabiy meros qoldirdi. Bugun shoир ijodini mufassal o'rganish, topilmagan asarlarini tadqiq etish, uning nomini abadiyatga muhrlash biz uchun ham qarz, ham farzdir. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 10-fevralida "Otashin shoир, tarjimon va dramaturg Usmon Nosir tavalludining 110 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarorni imzoladi. Ushbu qaror ijrosi yuzasidan ko'plab ijodiy-ilmiy izlanishlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazildi, shoир ijodini chuqurroq o'rganishga e'tibor qaratildi. Bu boradagi ishlarni har bir muassasa va ta'limning debochasi bo'lgan maktablardan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Endi esa bir savol tug'iladi: Usmon Nosir hayot yo'li va ijodini qay tartibda o'rganish kerak yoki ta'limning eng quyi bosqichi bo'lgan umumiy o'rta ta'lim maktablarida shoир faoliyatini qanday usullar yordamida o'rganish o'quvchilar uchun samarali bo'ladi?

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida Usmon Nosir hayoti va ijodini o'rgatishda adabiyot darslarida fanlararo integratsiya va muammoli ta'lim metodlarini qo'llash ko'proq natija beradi. Muammoli ta'lim – bu o'qituvchining o'quvchilarni ketma-ket muammoli vaziyatlar tizimini oldindan o'ylab qo'yilgan, yaratish yo'li bilan muammoli o'rgatish shartlarini ta'minlash va ularni o'quvchilar tomonidan yechish jarayonini boshqarish bo'yicha faoliyatdir.[1.46] Bu metod hozirda xalqaro miqyosda keng qo'llanilmoqda. Shuningdek, o'qituvchidan ham, o'quvchilardan ham birdek

faollikni, izlanuvchanlikni talab etadi. Muammo yechimini topishda esa keng doirada fikr yuritish lozim. 8-sinf adabiyot darsligida o'quvchilarga tanishish uchun "Yurak", "Nil va Rim" she'rlari berilgan. "Nil va Rim" she'rida:

*Rim ustida shamsiyadek tumanli osmon,
Katta sirkka sig 'ishmasdan qaynar olomon:
Odam bilan hayvon o'yin ko 'rsatar emish,
Bunday qiliq bizning uchun qandayin erish.* [2.178-179]

misralari keltirilgan. She'r yuzasidan o'qituvchi "Nima sababdan osmon shamsiyadek tumanli deya tasvirlanmoqda?", "Odam bilan hayvonning o'yin ko'rsatishi haqida nima deya olasiz?", "Nil oqadir – qullar to'kkан yosh" misralarini izohlang" kabi muammoli va mulohaza yuritishni talab qiladigan savollarni beradi. Bu orqali o'quvchilar asarni chuqurroq tahlil qiladilar va misralarda yashiringan ramziylikni tushunishga harakat qiladilar. Muammoli ta'limdagi yetakchi xususiyatlardan biri ham an'anaviy metodlar bilan o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan yoki mohiyatiga chuqurroq kirish lozim deb topilgan mavzu yuzasidan didaktik vaziyatni ataylab tashkil etishdadir. Shuning uchun ham bu metod yordamida ko'proq natijaga erishiladi.

Muammoli ta'limni yo'lga qo'yish bilan birga adabiyot darslarida fanlararo integratsiyadan foydalanish ham yaxshi samara bermoqda. Integratsiya "qo'shilish", "birlashish" ma'nolarini anglatadi. Ma'lumotlarni integratsiyalash har xil manbalarda mavjud bo'lgan materiallarni ma'lum maqsad asosida birlashtirib taqdim etishdir.[3.28] Bunda o'quvchi boshqa fanlardan olgan bilimlarini mustahkamlash, asarlarni tahlil qilish jaryonida hayotga bog'lay olish, bu orqali yuqori natijaga erishish kabi yutuqlarga ega bo'ladi. Darhaqiqat, adabiyot ko'p hollarda tarix, psixologiya, tasviriy san'at, aniq va tabiiy fanlar bilan aloqada bo'lib kelgan.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida Usmon Nosir hayoti va ijodini o'rganishda ham fanlararo integratsiyadan foydalanish, shubhasiz, yaxshi natija beradi. Xususan, "Nil va Rim" asarini tahlil qilish jarayonida "Spartak kim bo'lgan?", "Rimda quzdorlik davri qancha vaqt davom etgan?", "Gladiatrlar jangi haqida bilasizmi?" kabi savollarning qo'yilishi bilan tarix faniga murojaat qilinadi. Tarixda bo'lib o'tgan voqealarning bayonini ilmiy tarzda yaxshi bilgan o'quvchi badiiy adabiyotga olib kirilgan bu jarayonlarning mazmunini ham yaxshi anglay oladi.

Ma'lumki, o'quvchilar bilan guruhlarda ishlash ham yaxshi natija beradi. Maktablarda Usmon Nosir hayot yo'li va ijodiy faoliyatini o'rganishda "Adabiy xokkey" metodidan ham foydalanish tavsiya etiladi. Bunda dastavval xokkey o'yini, undagi ishtirokchilar va ularning vazifalari haqida ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan beriladi yoki o'quvchilardan so'raladi. Bu orqali jismoniy tarbiya fani bilan o'zaro

integratsiya yo‘lga qo‘yiladi. O‘quvchilar uch guruhga: 1-jamoa – yarim himoyachi; 2-jamoa – markaziy himoyachi; 3-jamoa – hujumchi kabilarga ajratiladi. Har bir guruh uchun "Usmon Nosirning lirik asarlarini ayting", "Shoirning publitsistik faoliyati haqida yozing", "Ijodkorning dramatik asarlari to‘g‘risida ma’lumot bering" singari topshiriqlar beriladi. O‘quvchilar javoblarni yozib, "Yarim himoyachilar" "Markaziy himoyachiga", ular "Hujumchilar"ga, 3-jamoa esa darvozabonga – o‘qituvchiga topshiradilar. Agar savollarga javob to‘g‘ri yozilgan bo‘lsa, "gol" sanaladi va rag‘batlantiriladi. "Adabiy xokkey" metodining o‘ziga xos xususiyati shundaki, bunda o‘quvchilar guruhga ajratilganiga qaramasdan o‘zaro hamkorlikda ishlaydilar.

Guruhrilar bilan ishlashda va Usmon Nosir she’rlarini tahlil qilishda "Uzum pishdi" metodi ham foyda beradi. Bu jarayonda ham o‘quvchilar soniga qarab ikki yoki uch guruhga ajratiladi. Metodni qo‘llashdan avval o‘qituvchi o‘quvchilarga uzum mevasi, uning qanday tur va navlari mavjud ekani haqida savollar beradi. Bu orqali botanika fanidan "Tokdoshlar oilasi" mavzusida olingan ma’lumotlar mustahkamlanadi va adabiyotning tabiiy fanlar bilan aloqasi ko‘rinadi. "Uzum pishdi" metodiga ko‘ra o‘qituvchi Usmon Nosirning asarlari yuzasidan savollarni umumiylar tarzda beradi va qaysi bir guruh to‘g‘ri, to‘liq va birinchi bo‘lib javob bersa, ular uchun uzum donalari qo‘sib boriladi. Yakunda esa "kimning uzumi birinchi pishgani"ga qarab rag‘batlantiriladi. Bu metodning o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda o‘quvchilarning bilimlari tekshirilishidan tashqari, ularni topqirlik, tezlik va chaqqonlikka ham yo‘naltiriladi.

Jarayonning boshlanishi:

1-guruh



2-guruh



Jarayonning yakunida:

1-guruh



2-guruh

Umumiylar o‘rta ta’lim maktabalarida matematika fanining o‘qitilishi uchun dars soatlarining boshqa fanlarga nisbatan ko‘proq ajratilganini, aksariyat o‘quvchilar bu fanga qiziqishini hisobga olgan holda adabiyot darslarida matematika fani bilan aloqada bo‘lish ham dars sifatini yaxshilaydi va natijani oshiradi. Xususan, Usmon Nosir asarlarining yoki asar qahramonlarining nomini topishda shunchaki savol tarzida bermasdan, ularni matematik misollar yordamida aniqlash noadatiy usul hisoblanadi. Bunda "Karra jadvali" metodi qo‘l keladi.

Bu metodni qo'llash davomida o'quvchilar misollar javobiga yashiringan harflarni ketma-ketlikda topadilar va undagi kalit so'zni aniqlaydilar. "Karra jadvali" metodini o'quvchilarning yoshi va psixologik holatiga ko'ra murakkablashtirish yoki kalit harflarni boshqa ranglarda berish orqali soddalashtirish mumkin. Bu metodni qo'llashning yutuq tomoni shundaki, odatda aniq fanlar bilan ko'proq shug'ullanib kelayotgan, ijtimoiy fanlarga qiziqishi sust bo'lgan o'quvchilarni ham adabiyot darslariga jalb qilish imkoniyati yuzaga keladi.

	1	2	3	4	5	6	7	8	9
1	a	q	f	s	X	h	g	o	I
2	w	v	y	x	F	q	w	h	B
3	i	j	l	m	P	e	k	a	Z
4	w	z	t	e	U	t	u	d	K
5	a	q	w	r	V	u	n	d	Z
6	e	r	f	p	O	i	t	c	Z
7	z	a	q	d	X	h	y	b	E
8	o	a	j	i	X	a	s	ng	B
9	sh	e	y	z	ch	u	w	h	I

Misollar:

$$3 \times 2 = 6 \text{ [y]}$$

$$5 \times 4 = 20 \text{ [u]}$$

$$2 \times 6 = 12 \text{ [r]}$$

$$6 \times 8 = 48 \text{ [a]}$$

$$7 \times 3 = 21 \text{ [k]}$$

Har bir o'quvchining bilim darajasi, qobiliyatidan kelib chiqib, Usmon Nosir ijodini o'rganishda Chet tili fani bilan aloqadorlikda topshiriqlarni bajarish ham muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, xorijiy tillarni o'qitishga katta e'tibor qaratilayotgan hozirgi kunda bu muhim hisoblanadi. Jumladan, o'quvchilar bilan individual ishslashda ular o'zлari bilgan chet tillariga Usmon Nosir asarlarining mazmunini ochib beruvchi tayanch so'zlarni tarjima qilish topshirig'i beriladi. Bu orqali chet tilini bilish bilan birga, o'quvchilardan asarlar uchun ochqich vazifasini bajarayotgan so'zlarni topish ham talab etiladi. Namuna sifatida o'qituvchi tomonidan "Bog'im" she'rining turk tilidagi tarjimasi o'qib eshittiriladi:

*Yaprak gibi koparsam,
 Beni unutmaz bahim.
 İşime saygı duyuyor
 Çiçeklerden bir heykel yapar.
 Binlerce yıl sonra bile
 Beni unutmaz bahim![4]*

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, shoirning hayotiy va ijodiy faoliyatini qanday yo'llar bilan bo'lsa-da o'rganish va ulg'ayib kelayotgan yosh avlodga o'rgatish bizning asosiy vazifamiz bo'lishi kerak. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, Usmon Nosirning hayoti va ijodini, xususan, uning qatag'on davrida

kechgan yillarini o‘rganish, hozirga qadar noma’lum bo‘lib kelayotgan qo‘lyozma asarlarining taqdiri haqida ma’lumot to‘plash zarur. Negaki, ulug‘ shoir, Namangan farzandi Usmon Nosir ijodini qancha o‘rgansak, shuncha kam. Ijodkor asarlarini qayta-qayta tahlil qilib, o‘zimiz uchun yangi ma’no qirralarini kashf etamiz. Zero, olmosga sayqal berganing sari u go‘zallashaveradi!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Uzoqov L.P. Maxsus fanlarni muammoli o‘qitish texnologiyasi. – T.: Fan, 2013 – 312 bet
2. Adabiyot (Matn) 8-sinf uchun darslik/ O.Sultonov va boshqalar. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2020. – 286 bet
3. Adabiyot o‘qitish metodikasi [Mant] / o‘quv qo‘llanma: Q. Husanboyeva, R. Niyozmetova.: «Barkamol fayz media» nashriyoti, 2018-yil. – 352 bet.
4. "Zamonaviy o‘zbek adabiyoti rivojida Usmon Nosir ijodiy merosining o‘rni va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumandagi Dr.Kemal Yavuz Atamanning "TARIHTE ŞAIRLERİN YAŞADIĞI ACILAR VE KÜRESEL DAYANIŞMA" mavzusidagi ma’ruzasidan
5. Internet saytlari: <https://uza.uz/posts/425248> va https://t.me/dilafruz_xidoyatova